
Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 166 692,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 8,1 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi o‘tgan yilning mos davri narxlariga nisbatan 122,6 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo‘shgan hissasi 9,5 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot





- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	**125 776,6**	**166 692,7**	**108,1**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	124 886,4	165 239,8	108,1
mahsulotlarga sof soliqlar	890,2	1 452,9	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**124 886,4**	**165 239,8**	**108,1**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**9 538,0**	**11 048,8**	**104,3**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**100 255,8**	**136 151,9**	**107,9**
sanoat	95 839,5	130 557,9	107,4
qurilish	4 416,3	5 594,0	119,3
xizmatlar	**15 092,6**	**18 039,1**	**111,7**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 312,5	6 503,5	114,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 972,9	2 420,5	118,8
boshqa xizmat tarmoqlari	7 807,2	9 115,1	107,9

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 140 040,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so‘mda)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)


	2025- yil	*2026- yil*
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	99,3	99,1
mahsulotlarga sof soliqlar	0,7	0,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**7,6**	**6,7**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**80,2**	**82,4**
sanoat	76,7	79,0
qurilish	3,5	3,4
xizmatlar	**12,2**	**10,9**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4,3	3,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,6	1,5
boshqa xizmat tarmoqlari	6,3	5,5

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 6,7 % ni, sanoat tarmog‘i 79,0 % ni, qurilish 3,4 % ni va xizmatlar sohasi 10,9 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*




Yalpi qo‘shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,3 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.), sanoat tarmog‘i – 5,6 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 5,9 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,7 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 1,3 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.)ga ko‘paydi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 6,7 %), sanoatda – 107,4 % (79,0 %), qurilishda – 119,3 % (3,4 %), xizmatlar sohasida – 111,7 % ni (10,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 114,6 % (3,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,8 % (1,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,9 % dan (5,5 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi o‘tgan yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 122,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoatda – 126,9 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 111,1 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 29 203,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan – 26 063,2 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 17,7 % ni (o‘tgan yilning yanvar-sentabr oylarida – 20,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)



	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2025- yil	26 063,2	20,9 %
2026- yil	29 203,3	17,7 %

